



Maftunabonu ZUXRIDDINOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
E-mail: zukhriddinovamaftuna@gmail.com

DSc, dotsent T. Quchqarov taqrizi asosida

THE PHENOMENON OF INVESTIGATING DYSPHEMISMS WITHIN THE FIELD OF LINGUISTICS

Annotation

This article analyzes the study of dysphemisms in linguistics and their use in various cultural and social contexts. The article also focuses on the pragmatic and sociolinguistic analysis of dysphemisms, with particular attention to studies conducted in Asian countries.

Key words: dysphemism, linguistics, euphemism, sociolinguistics, cultural context, pragmatics.

ЯВЛЕНИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ДИСФЕМИЗМОВ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация

Данная статья анализирует изучение дисфемизмов в лингвистике и их использование в различных культурных и социальных контекстах. В статье уделено особое внимание исследованиям прагматического и социолингвистического анализа дисфемизмов в странах Азии.

Ключевые слова: дисфемизм, лингвистика, эвфемизм, социолингвистика, культурный контекст, прагматика.

DISFEMIZMLARNING TILSHUNOSLIKDA TADQIQ ETILISH HODISASI

Аннотация

Mazkur maqola disfemizmlarning tilshunoslikda o'rganilishi va ularning turli madaniy hamda ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishi haqida tahlil beradi. Maqolada, shuningdek, Osiyo davlatlarida disfemizmlarning pragmatik va sotsiolingvistik tahliliga oid tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: disfemizmlar, tilshunoslik, evfemizmlar, sotsiolingvistika, madaniy kontekst, pragmatika.

Kirish. Qadimdan odamlar tana a'zolari, kasallik, o'lim, ichkilikbozlik va diniy mavzular kabi nozik tushunchalar haqida suhbatlashishdan qochib, bu mavzularga nisbatan tabular o'rnatganlar. Bunday ijtimoiy cheklovlar tillarga ta'sir qilib, ba'zi mavzularda erkin muloqot qilishni cheklagan. Odamlar muayyan so'zlarni tanlash orqali o'zaro munosabatlarni saqlashga va birdamlikni kuchaytirishga harakat qiladilar. Tildagi so'zlar turli holat va kayfiyatlarga ko'ra ma'noni yumshatishi yoki qo'pollashtirishi mumkin. So'zlovchilarning lingvistik tanlovi ular bilan kim gaplashayotganiga, joy va zamonga qarab o'zgaradi. Bir madaniyatda qo'pol bo'lgan so'zlar boshqasida ijobiy qabul qilinishi ham mumkin. Shu bilan birga, madaniy va ijtimoiy tarbiya olgan tinglovchilar uchun qo'pol so'zlarning ta'siri salbiyroq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Allan va Burrij [1] ta'kidlashi bo'yicha, suhbat quruvchilar ko'pincha o'zlarini haqoratli til yoki ijtimoiy jihatdan ma'qullanmagan mavzulardan himoya qilish uchun neytral yoki yoqimli ifodalarni ishlatishga intilishadi. Va aksincha, ular ba'zi mavzular yoki odamlarni kamsitish uchun haqoratli til birliklaridan foydalanishlari mumkin. Bu borada Fargal ham o'z fikrini beradi va deydi, evfemizmi yoki disfemizmi tanlash ko'pincha so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar yoki muhitdagi rasmiylik darajasi kabi kontekstual omillardan kelib chiqadi. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, demak, so'zlovchilar odatda evfemistik ifodalarni nutqini adabiy holatga keltirish va muloyimroq qilish uchun ishlatadilar va ba'zida tinglovchilarni haqorat qilish uchun tabular yoki disfemistik ifodalarga murojaat qiladilar. Evfemizmi yunoncha "eu" - "yaxshi, muloyim"; "phēmē" - "gapirish" so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan va ko'p tilshunoslar fikriga ko'ra noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. "Лингвистический энциклопедический словарь"da esa "Evfemizmi - bu so'zlovchi nazariya qo'pol, noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'rtasida qo'llangan, ularga ma'nodosh bo'lgan emotsional betaraf so'z va ifodalar" deyiladi. Disfemizmi yunoncha "dys" - "yomon, noqulay"; "phēmē" - "gapirish" so'zlarining birikuvini bo'lib, 19-asr oxirlarida keng foydalanish uchun mavjud bo'lgan va 1927-yilda birinchi marotaba Albert Karnuya tomonidan foydalanilgan.

Ular ifodalarni kamsituvchi, haqoratovchi yoki xo'rllovchi holatga keltiradi va adresatga salbiy ma'no yuklaydi. Concise Oxford English Dictionary (2004) ma'lumotiga ko'ra, disfemizmi "yoqimli yoki neytral so'z o'rniga haqoratovchi yoki noqulay atamalarni ishlatishdir". Disfemizmlarning adabiyotda ishlatilish ko'lamini katta chunki ular qahramonlarning nutq shaklini tavsiflash yoki ularning boshqalarga nisbatan norozilik, qo'pol yoki kamsituvchi munosabatlarini yetkazib berish uchun qo'llaniladi. Malfemizmi va kokofemizmi ham disfemizmi ning alternativ sinonimlari hisoblanadi. Malfemizmi lotin tilidagi "mulus" - "yomon" so'zidan olingan va muloyim, noaniq so'zni haqoratovchi, qo'pol yoki keskin so'z bilan almashtirish amaliyotidir. Tilshunos Grant bu terminni taklif qilgan bo'lib, bu so'zlar qo'pol, nafratga to'lgan, masxaralovchi, kufr va boshqa barcha yomon illatlarni o'z ichiga olgan birliklardir deb ta'rif beradi. Ispan tilshunosi Da Silva Correa esa disfemizmi tushunchasini "kakofemizmi", "kontra-evfemizmi" va "antievfemizmi" deb ataydi. Kokofemizmi termini grek tilidagi "kokos" "yomon" so'zining birikuvidan hosil bo'lgan va muloyim yoki neytral iboralarning o'rniga kamsituvchi yoki haqoratli so'z yoki iboralarni atayin ishlatilishiga aytiladi. Yuqoridagi uchta iborani bir-biriga sinonim sifatida qo'llayotgan bo'lsak ham, disfemizmi va malfemizmi qo'pol yoki shunchaki hazil tariqasida kamsituvchi so'zlar bo'lishi mumkin, "kakofemizmi" esa odatda qasddan haqorat qilish sifatida tushuniladi [14].

Evfemizmi va disfemizmi ta'riflarini aniqlab olganimizdan so'ng savol tug'iladi: agar evfemizmi tabiiy so'zlar o'rniga ishlatiladigan muloyim so'zlar bo'lsa, disfemizmi esa qo'pol yoki haqoratli so'zlar yoki iboralar bo'lsa, demak bu ikki kategoriyaga kirmaydigan yana bir neytral bo'shliq bor ekan. Bu bo'shliqdagi so'zlarni nomlash uchun Kate va Allan "ortofemizmi" terminini taklif qildilar. Bu so'z yunoncha "ortho" - "to'g'ri, to'g'ri, normal" so'zlari birikuvidan tashkil topgan. Ortofemizmlar haqoratli ifodalarning alternativlaridir va evfemizmlar singari, ijtimoiy maqbul atamalar sifatida afzal ko'riladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha atamalarni to'plam sifatida "X-femizmlar" deb guruhlashtiriladi. Ularning qiymati asosan ular aytilgan kontekstida baholanadi. X-femizmi qiymatini belgilaydigan unsur ijtimoiy munosabatlar yoki konvensiyalar bo'lib, ular ma'lum

dialekt guruhlari o'rtasida va hatto bir xil jamiyat a'zolari o'rtasida ham sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Rim notiqchida ham disfemizm strategik tarzda qo'llanilgan. Taniqli notiqalar, masalan, Tsitseron va Seneka, raqiblarini obro'sizlantirish, jamoatchilik fikrini o'zgartirish va nutqiy ustunlikni ta'kidlash uchun qo'pol til ishlatganlar. Jamoat nutqlarida disfemizmni ishlatish raqiblarning nuqsonlari va kamchiliklarini ta'kidlash uchun ataylab qilingan taktika bo'lgan.

Qadimgi davrlarda disfemizm faqat jamoat nutqiga xos emas, balki kundalik hayotda ham keng tarqalgan edi. Turli qadimgi madaniyatlarda qo'pol til ishlatish ijtimoiy iyerarxiyani aks ettirishi mumkin edi, bu yerda boshqlardan ustun bo'lgan amaldorlar o'zlarining ustunliklarini tasdiqlash uchun haqoratamuz so'zlardan foydalanar edilar. Bu lingvistik amaliyot ijtimoiy tuzilmalar va hokimiyat munosabatlarini mustahkamlardi.

Renessans davri (14-17-asr), Yevropada katta madaniy, badiiy va intellektual rivojlanish davri bo'lgan. Ushbu davr Gretsiya va Rimning klassik qadriyatlariga bo'lgan yangilangan qiziqish tufayli adabiyot va san'atda sezilarli rivojlanishlarga olib keldi. Renessans yozuvchilari tomonidan qo'llanilgan ko'plab adabiy uslublar orasida disfemizm ularning asarlarini yanada kuchaytirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu lingvistik vosita ko'pincha kuchli his-tuyg'ularni ifodalash, turli mavzularni tanqid qilish yoki qahramonlar va vaziyatlarni aniq va realistlik tasvirlash uchun ishlatiladi.

Tushunchalarni evfemistik tarzda ifodalashdan qoniqmaslik, lingvistik iboraning qarama-qarshi turi bo'lgan disfemizmning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu atama birinchi marta 1873-yilda qayd etilgan va 1927-yilda qayta kashf qilingan o'sha vaqtda unga: "Disfemizm achinmaslik, shafqatsizlik, masxaraomuzlikdir. Bu maqtanchoqlik, injiqlik va manmanlikka ham, shuningdek, o'ta hashamdorlikka ham qarshi reaksiyadir"[13]. Disfemizm bo'yicha adabiyot asosan peyorativ konnotatsiyalarga qaratilgan. Timoti Jayning asarlari tilshunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan haqoratli so'zlarni jiddiy va keng ko'lmda o'rganadigan birinchi asarlar qatoriga kiradi[11].

MakEneri korpus ma'lumotlarini ishlatib, so'kinishlarning tipologiyasi va sotsiolingvistikasini yoritadi. MakEneri tomonidan ta'riflanganidek, yomon til, kingadir noqulaylik yoki haqorat yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday so'z yoki iboradir. So'kinish yomon tilning bir misoli sifatida ko'riladi [13].

Dewaele so'kinish va tabular bo'yicha ko'p tillik nuqtai nazarini taqdim etadi. U his-tuyg'ularni, shu jumladan salbiy his-tuyg'ularni, masalan, g'azab va so'kinishni chet tilida ifodalash qiyin bo'lishi mumkinligini aytib o'tdi. Buning sabablaridan biri shundaki, his-tuyg'ularni, masalan, g'azabni ifodalash, insonning his-tuyg'ulari ustidan nazoratni yo'qotishiga olib keladi va natijada, insonning lingvistik resurslari ustidan nazoratni yo'qotishni ham o'z ichiga olishi mumkin [7].

Bergen la'natlashning kognitiv jihatlariga akademik qiziqishning ortib borayotganini aks ettiradi. Benjamin K. Bergen qarg'ishning keng qamrovli tadqiqotini taqdim etadi va lingvistik tabu haqida kengroq ma'lumot beradi. Lingvist sifatida Bergen qarg'ishning lingvistik jihatlarini tahlil qilishga ko'proq qiziqadi va ushbu mavzuga sotsiolingvistik va kognitiv lingvistik nuqtai nazardan yondashadi. Bergen madaniyat va jamiyatning taqiqlangan nutqdagi rolini muhokama qiladi va qarg'ishni universal deb hisoblaydigan tamoyillarni taqdim etishdan oldin mavzuni turli tillar bo'yicha sinchkovlik bilan o'rgandi.

Disfemizmlar ikkinchi jahon urushidan keyin evfemistik birliklar qatorida nutq sathida o'z o'rniga ega bo'la boshladi va tilshunoslarning tadqiq manbaiga aylandi. Dastlab, G'arb davlatlaridagi tilshunoslar e'tiboriga tushgan ushbu hodisa, K. Allan, Burrige, U. Giezek, R. Burchfield, G. M Casas, E. Warren, N. Zollner kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan. Ular disfemizmlarni tarixiy jihatdan tadqiq etib, evfemizmlar bilan taqqoslash orqali hulosalar chiqarganlar. Xususan, Allan va Burrirdj evfemizmlar va disfemizmlarning lingvistik va ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganib, bu til shakllarining qanday qilib o'zini himoya qilish yoki hujum qilish uchun ishlatilishini tahlil qiladi; Giezekning tadqiqotlari ko'pincha sotsiolingvistika va tilning pragmatikasi bilan kesishib, haqoratamuz tilning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishini o'rganadi. Uning

disfemizmlar haqidagi batafsil maqolalari turli lingvistik jurnallarda chop etilgan bo'lib, haqoratamuz tilning pragmatik va ijtimoiy ta'sirlarini o'rganadi; Burchfield esa kitoblarida disfemizmlarning til o'zgarishi kontekstida qanday rivojlanganini tahlil qiladi; [2] Uning maqolalari evfemistik va disfemistik tilning kognitiv jihatlarini o'rganadi; Warren media va jamoat nutqida disfemizmlarning ta'siri bo'yicha keng tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari media tadqiqotlari va lingvistik pragmatika bo'yicha to'plam va jurnallarda ko'p bora nash qilingan; Zollnerning tadqiqotlari ko'pincha disfemizmlarning sotsiolingvistik jihatlari va uning madaniy ifodadagi rolini o'z ichiga oladi. Uning disfemizmlar haqidagi tadqiqot maqolalari turli lingvistik va sotsiokultural jurnallarda chop etilgan bo'lib, haqoratamuz tilning ijtimoiy dinamikaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Rus olimlaridan, A.N.Rezanova ingliz tilidagi disfemizmlarni o'rgangan va ularning tarixiy shakllanish bosqichiga urg'u bergan, V. I. Jelvis, T.B. Boyko, V. I. Zabolkina, B. A. Larin, R P Moskvina va T.S. Bushayevalar esa disfemizmlarni evfemizmlar bilan yonma-yon tadqiq qilib borishgan. Masalan, V. I. Jelvis "Поле брани: сквернословие как социальная проблема в языках и культурах мира" tadqiqot ishida turli tillar va madaniyatlar orasida ijtimoiy ma'qullanmagan til birliklaridan foydalanishning o'xshashliklari va farqlari to'g'risida ma'lumot bergan. T.S. Bushayeva esa "Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке" tadqiqotida zamonaviy tilshunoslikda evfemizm va disfemizmlarni pragmatic jihatdan tahlil qilgan va hozirgi paytda ularning ta'siri qanday holatga kelib qolgan borasidagi izlanishlarini berib borgan. Bundan tashqari pragmatolingvistika sohadagi tadqiqotlar N. D. Arutyunova, E. S. Aznaurovalar tomonidan, xususan "Предложение и его' смысл: Логико-семантические проблемы" asarda semantika va til falsafasini tushunish, qanday qilib til murakkab fikrlarni bildirish quroli ekanligi borasida fikr yuritadilar; kognitiv lingvistika sohadidagi tadqiqotlar M. V. Nikitin, T. A. van Deyk, E. S. Kubryakova, E. V. Rahlina, T. G. Skrebtsovoylar tomonidan; stilistika sohasidagi tadqiqotlar, misol uchun T. G. Skrebtsovoy "Наивные картины глобализации: взгляд лингвиста" maqolasida tilshunoslik nuqtai nazaridan globalizatsiyaning ta'sirlari haqida ma'lumot bergan. V. G. Kostomarov, T. G. Dobrosklonskaya kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

F. Djajasudarma fikriga ko'ra, hissiy ma'no so'zning ma'nosi bilan bog'liq qiymatdir. Bu qiymatlar ijobiy bo'lishi mumkin, masalan, yaxshi, odobli, hurmatli yoki muqaddas ma'nolarni anglatadi. Aksincha, qiymatlar salbiy bo'lishi ham mumkin, masalan, qo'pol, xunuk, iflos, odobsiz yoki hatto pornografik ma'nolarni anglatadi [6]. Chaer dysphemizmni ma'nosi yumshoq yoki oddiy so'zni qo'pol ma'noga ega so'z bilan almastirishga urinish deb ta'riflaydi [5]. Marcus dysphemizmni evfemizmning antonimi deb hisoblaydi, bu erda evfemizm tajovuzkor yoki hujumkor ifoda bilan almastiriladi. Dysphemizm suhbat mavzusi bo'lgan kishi uchun noxush ifodadir [12]. Al-Qadi ba'zi nozik masalalar va ijtimoiy tabular, masalan yuqumli kasalliklar, "nojo'ya ifodalarni aytishni talab qiladi" deb ta'kidlagan [12].

Garner dysphemizmni neytral yoki ijobiy ma'noga ega so'z yoki iboralarni noxush so'zlar bilan almastirish deb ta'riflaydi. Disfemizm evfemizmning aksi bo'lib, tinglovchini hujum qilish uchun qo'llaniladi. Allan va Burrirdj qarashlariga ko'ra, disfemizm so'zlashuvchilar va tinglovchilar uchun og'riqli yoki bezovta qiluvchi ma'noga ega bo'lgan so'z yoki iboradir.

Tahlil va natijalar. G'arb davlatlaridagi tilshunoslardan farqli o'laroq, osiyolik tilshunoslar disfemizmlarga shunchaki evfemizmlarning aksi sifatida emas balki yaxlit tushuncha sifatida qaraganlar. Osiyo mamlakatlarida disfemizmni o'rganish. Asosan, pragmatic, lingvistik va sotsiolingvistik tadqiqotlar bo'yicha olib borilgan. Bu tadqiqotlarning ko'pchilik qismi disfemizm kabi haqoratli so'zlarning turli madaniy va ijtimoiy kontekstda ishlatilishi va ularning ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Quyida esa Osiyodagi ko'zga ko'ringan shu sohaga hissa qo'shgan tilshunos olimlar haqida to'xtalib o'tamiz:

Yapon xalqi o'z muloyimligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi va tabiiyki, disfemizmlarni o'rganish va shu orqali ularning foydalanishga ehtiyorkor bo'lish bu davlat aholisi uchun muhim bo'lgan. Sachiko Ide yaponiyalaiklarning hurmatlilik konseptini o'rgangan, shu orqali u yapon tilidagi hurmat ma'nosini beruvchi so'zlar bilan birgalikda hurmatni to'kuvchi haqoratimiz so'zlarni ham pragmatic jihatdan tahlil qilgan [15].

Shu yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib borgan yana bir Yaponiyalik tilshunos Yasuhiko Koga bo'lgan. Ushbu tadqiqotchi haqoratimiz so'zlarning sotsiolingvistik tahliliga asoslanib, o'z ilmiy ishini yozadi [16].

Bu sohada Yaponiyalik hamkasblaridan ortda qolmagan Xitoylik tilshunoslar ham o'z fikrlarini ommaga havola etishgan. Ulardan biri He Ziran bo'lib, u Xitoy tilida pragmatika va diskurs tahlilini o'rganib, hurmatlilik va hurmatsizlikning lingvistik aspektlarini tadqiq qilgan. Uning "Politeness and Impoliteness in Chinese: An Analysis of Dysphemistic Expressions" (Journal of Pragmatics, 2010) maqolasi Xitoy tilida haqoratimiz ifodalarning tahlilini beradi.

Yana bir xitoylik izlanuvchi Li Wei ko'ptillilik va belgi-almashtirish orqali suhbatlashish masalalarini o'rganadi, bu esa Xitoy tilida haqoratimiz tilning turli kontekstlardagi ishlatilishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Uning "The Bilingualism Reader" (Routledge, 2007) kitobi ko'ptillilikni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Madaniyat jihatdan Yaponiya bilan o'xshash bo'lgan Korea davlatida ham disfemizmlarga nisbatan jiddiy qarashlar, taqiqotlar olib borilgan. Ular orasida ko'zga ko'ringanlarida biri Baek Il-Hwan disfemizmlarning sotsiolingvistik tahliliga e'tibor qaratgan. Uning "Youth Language in Korea: A Sociolinguistic Analysis" (Seoul National University Press, 2015) kitobi koreys tilidagi haqoratimiz ifodalarning tahlilini tadqiq qiladi. Yana bir tadqiqotchi Sookeun Chang Koreya mediasida haqoratimiz tilning tasviri va uning ijtimoiy ta'sirini o'rganadi. Uning "The Portrayal of Offensive Language in Korean Media: A Sociolinguistic Perspective" (Media Studies Journal, 2014)

maqolasi koreya mediasida haqoratimiz tilning tasviri haqida ma'lumot beradi. Osiyo mamlakatlarida disfemizmi o'rganish ko'pincha lingvistika, sotsiolingvistik va pragmatik tahlillar doirasida olib boriladi. Yetakchi olimlar, masalan, Sachiko Ide va Yasuhiko Koga Yaponiyada, He Ziran va Li Wei Xitoyda, Baek Il-Hwan va Sookeun Chang Koreyada haqoratimiz tilning turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishini o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari tilning insonlar o'rtasidagi muloqotda qanday ishlatilishini va bu jarayonda yuzaga keladigan normativ buzilishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada disfemizmlarning tilshunoslikdagi ahamiyati va ularning turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishi keng tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, disfemizmlar nafaqat muloqot jarayonida tilning qo'pol yoki haqoratli shakllarini ifoda etadi, balki ular ijtimoiy munosabatlar, siyosiy va madaniy qadriyatlar, hamda jamiyatning axloqiy me'yorlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, disfemizmlar madaniy kontekstga qarab turlicha qabul qilinadi va har bir jamiyatda ularning ishlatilishi o'ziga xos ma'no va ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Osiyo mamlakatlaridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, disfemizm, evfemizm kabi lingvistik vositalar pragmatik va sotsiolingvistik jihatdan jiddiy o'rganilishi zarur bo'lgan hodisalardir. Disfemizmlarning turli madaniyat va ijtimoiy sharoitlarda o'ziga xos ishlatilishi ularning lingvistik shakllarini yanada boyitadi. Yaponiyada, Xitoyda va Koreyada disfemizm bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu sohada izlanishlar hali to'la yakuniga yetmagan va kelgusida yanada kengroq o'rganishlarni talab qiladi. Taklif etiladiki, disfemizmlarni o'rganishda lingvistik, psixologik va ijtimoiy omillarni chuqurroq tahlil qilish, ularning qo'llanilishi va ta'sirini global va mahalliy kontekstda o'rganish kerak. Shu bilan birga, disfemizm va evfemizmi lingvistik va madaniy jihatdan kengroq qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lardi, bu esa tilning turli kontekstlardagi ishlatilishini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

- Allan, K. & Burridge, K. (1991). *Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon*. New York: Oxford University Press.
- Al-Qadi, N.S. (2009). A Sociolinguistic Comparison of Euphemisms in English and Arabic. *Journal of King Saud University- Language and Translation*, 21(1), 13-22.
- Carnoy, A. (1927). *La science du mot: Traité de sémantique* [The science of words: A treatise on semantics]. Éditions Universitas, Louvain.
- Casas, G. M. (2009). Euphemism and Dysphemism: Their Use in Literature and Everyday Language. *Pragmatics and Cognition*, 17(3), 567-580.
- Chaer, A. (1995). *Introduction to Semantics Indonesian*. Jakarta: Rineka Cipta.
- Djajasudarma, F. (1993). *Semantics 1. Introduction to the Direction of Science Meaning*. Bandung: ERESKO.
- Dewaele, J.-M. (2010). *Emotions in multiple languages*. Basingstoke, UK: Palgrave Macmillan.
- Enright, D. J. (Ed.) (1985). *Fair of speech: the uses of euphemism*. New York: Oxford University Press.
- Farghal, M. (1995). Euphemism in Arabic: A Gricean Interpretation. *Anthropological Linguistics*, 37(3), 336-378.
- Jay, T. (1992). *Cursing in America: A psycholinguistic study of dirty language in the courts, in the movies, in the schoolyards and on the streets*. Amsterdam: John Benjamins.
- Marcus, D. (2011). *The Barren Woman of Psalms 113: 9 and the Housewife: An Antiphrastic Dysphemism*. *Bravman Memorial Volume*.
- McEnery, T. (2009). *Swearing in English: Bad language, purity and power from 1586 to the present*. London: Routledge.
- Silva Correia, João Da. (1927). *O eufemismo e o disfemismo na língua e na literatura portuguesa*. Arquivo da Universidade de Lisboa, 445-787.
- The Sociolinguistics of Honorifics in Japanese* (2008). Nihon University Press.
- The Use of Offensive Language in Japanese: A Pragmatic Approach* (2006). Pragmatics